

## Hududlarda "Besh muhim tashabbus" olimpiadasi



### Hududlarda "Besh muhim tashabbus" olimpiadasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida So'x tumanida ham arziqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunga mahallalarda "Besh muhim tashabbus" olimpiadasi doirasida sportning shashka turi bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarni kiritishimiz mumkin. Aytish lozimki, ushbu musobaqalar mahallalarning yoshlar yetakchilari tomonidan ta'kil etilib, o'tkazilayotir.

Ayni kunda tumanimizning uchta hududida - Guliston, Qal'a va Sohibkor mahalla fuqarolar yig'inida ushbu musobaqalar o'tkazilganligi haqida bizga xabar yetkazildi.

Mahallalar yoshlar yetakchilari - Mehriddin Muxtorov, Ilhomjon Mulloyev va Subhonali Zaylobovlarning ma'lumotiga ko'ra, shashka musobaqalari yoshlar ishtirokida bevosita hudud ta'lim muassasalarida o'tkazilib, mazkur musobaqalarda yoshlarning faol ishtiroki ta'minlandi.

Musobaqalar murosasiz, bahslarga boy va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-23 13:45:59